

A-PAY

«A-PAY» TO'LOV XIZMATIDAN
FOYDALANISH BO'YICHA

OMMAVIY OFERTA

Toshkent sh.



Sizga «A-Pay» (Alter pay, Alternative payment) To'lov xizmatidan foydalanish to'g'risidagi Shartnomaning barcha muhim shartlari bayon etilgan ommaviy ofertaning matni bilan tanishib chiqishni taklif etamiz.

Mazkur hujjat ushbu Shartnomani tuzish huquqiga ega va layoqatli jismoniy shaxsga yo'naltirilgan bo'lib, direktor Ko Andrey Nikitovich nomidan «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» mas'uliyati cheklangan jamiyatning O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367- va 369-moddalariga muvofiq «A-Pay» to'lovlar xizmatidan foydalanish to'g'risidagi rasmiy taklifi - ommaviy ofertasi hisoblanadi.

«A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish to'g'risidagi ommaviy oferta Shartnomasining shartlariga rozi bo'lgan taqdiringizda Sizning tomoningizdan ommaviy ofertada qayd etilgan barcha zarur harakatlar bajarilganidan so'ng tuzilgan deb hisoblanadi va bu «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish to'g'risidagi Shartnomasining hamma shartlariga istisnosiz va qo'shimchalarsiz rozililingizni anglatadi.

1. SHARTNOMADA FOYDALANILADIGAN ATAMALAR VA TA'RIFLAR

«A-Pay» To'lov xizmati - tovarlar va xizmatlar/ishlar uchun bank kartalaridan foydalangan holda xavfsiz hisob-kitobni amalga oshirish, shuningdek, servis vazifalarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni sodir etishni ta'minlaydigan «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish to'g'risidagi Shartnoma doirasida o'tkazmalarni amalga oshirishda apparat vositalarining, aloqa kanallari va boshqa axborot-texnologik o'zaro aloqaning o'ziga xos xususiyati.

Bank kartasi (Karta) - Emitent tomonidan chiqarilgan, tovarlar va xizmatlar uchun, shu jumladan, Internet orqali kontaktsiz o'tkazish texnologiyasidan foydalangan holda to'lanadigan bank plastik kartasi.

Foydalanuvchi - layoqatli va huquqli, Bank kartasiga ega bo'lgan, o'zaro hisob-kitob qilish huquqi va majburiyatiga ega bo'ladigan «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish to'g'risida ochiq Ofertani (keyin - «Oferta») akseptlagan jismoniy shaxs.

Shaxsiy ma'lumotlar - jismoniy shaxsga bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan, Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan va uning yordamida uning shaxsini tasdiqlashi mumkin bo'lgan har qanday ma'lumot.

«CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» (bundan keyin - Jamiyat) MChJ «A-Pay» To'lov xizmatining Servisni boshqarish, Foydalanuvchilar va to'lov Ishtiroklari o'rtaSIDAGI o'zaro axborot va texnologik hamkorligi, uning to'lov va boshqa amaliyotlar bo'yicha axborotni yig'ish, topshirish va saqlash yo'li bilan ishlashini ta'minlaydigan mutlaqo huquqiga egadir.



2. SHARTNOMA MAZMUNI

- 2.1. Mazkur Shartnoma quyidagi harakatlarni amalga oshirish uchun «A-Pay» To'lov xizmatini taqdim etish shartlari va tartibini belgilaydi:
 - 2.1.1. «A-Pay» To'lov xizmatida mavjud bo'lgan tovarlar, xizmatlar/ishlarni yetkazib beruvchilar ro'yxatining foydasiga pul o'tkazish;
 - 2.1.2. Foydalanuvchining pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha ko'rsatmalarini bajarish;
 - 2.1.3. Foydalanuvchi tomonidan mazkur Shartnoma shartlari asosida «A-Pay» To'lov xizmatida mavjud bo'lgan boshqa amaliyotlarni bajarish;
- 2.2. «A-Pay» To'lov xizmati doirasida Jamiyatning majburiyatları Foydalanuvchining o'tkazmalarini qabul qilish bilan chegaralanadi. Shu bilan birga, Jamiyat Foydalanuvchining Yetkazib beruvchi bilan tuzgan bitimining qonuniyligini, uning shartlarini, shuningdek, bitimni tuzish, bajarish va bekor qilish faktlari va oqibatlarini tartibga solmaydi va nazorat qilmaydi, bunday bitimlar uchun to'lovnii qaytarish ham shular jumlasidan. Jamiyat Foydalanuvchining Ta'minlovchilarning bitim bo'yicha o'z majburiyatlarini, shu jumladan tovari ni yetkazish, xizmat ko'rsatish yoki ishlarni bajarish majburiyatlarini bajarmasligi (lozim darajada bajarmaslik) to'g'risidagi da'volarini ko'rib chiqmaydi.
- 2.3. Foydalanuvchiga «A-Pay» To'lov xizmati xizmatlarini ko'rsatish boshlangan vaqt - Foydalanuvchi tomonidan ushbu Shartnomaning 3-bobida nazarda tutilgan ushbu Shartnomanini tuzish uchun zarur bo'lgan aniq harakatlarni amalga oshirgan payt hisoblanadi.
- 2.4. Bitim bo'yicha qabul qiluvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish maqsadida Foydalanuvchining bank kartalaridan pul mablag'larini yechib olish uchun zarur bo'lgan Ma'lumotlarni kiritish imkoniyati Foydalanuvchiga mazkur Shartnomaning akseptidan keyingina beriladi.
- 2.5. «A-Pay» To'lov xizmati Foydalanuvchilarga pullik asosda ko'rsatiladigan xizmatlarni o'z ichiga olishi mumkin. Foydalanuvchining xohishiga ko'ra, bunday xizmatlarni faollashtirish uning tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

3. AKSEPT TARTIBI

- 3.1. Mazkur shartnoma Xizmatda Foydalanuvchi tomonidan to'liq va so'zsiz akseptlangan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va kuchga kiradi.
- 3.2. Foydalanuvchining «A-Pay» To'lov xizmatidan ro'yxatdan o'tishni amalga oshirishi mazkur Ofertani to'liq va so'zsiz aksepti hisoblanadi. To'lov xizmati Android va IOS operatsion tizimlari platformalarida va www.a-pay.uz veb adresida mavjud.
- 3.3. Shartnoma tuzilgan joy Toshkent shahri hisoblanadi.
- 3.4. Mazkur Shartnomani tuzish bilan bir vaqtida Foydalanuvchi «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJga O'zbekiston Respublikasining Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlari (F.I.Sh., uyali aloqa telefonining raqami, bank kartalarining raqamlari, parollari, elektron pochta manzillari, to'loving hisob ma'lumotlari, shuningdek, mazkur Shartnomani ijro etishda zarur bo'lgan boshqa shaxsiy ma'lumotlar) ga ishlov berilishiga o'zining muddatsiz rozilagini berish, shaxsiy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligining talablariga muvofiq o'z rozilagini bildiradi. Foydalanuvchi shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berilishiga o'zining rozilagini taqdim etib, shuningdek, shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, ularni yozish, saqlash, tizimlashtirish, to'plash, ishlov berish, shaxsiy ma'lumotlarni o'zgartirish (yangilash, o'zgartirish), yangi materiallarga olish, foydalanish



(xususan, axborot almashish va mazkur shartnomani bajarish maqsadida uchinchi shaxslarga topshirish), taqdim etish, tarqatish, xususiyatlarini yo'qotish, shaxsiy ma'lumotlarni olib tashlash, blokirovkalash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunida nazarda tutilgan boshqa har qanday harakatlarni amalga oshirishga o'zining ruxsatini beradi.

3. 5. «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MChJ Foydalanuvchini shaxsiy ma'lumotlarini himoyalash bo'yicha barcha zarur tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi talablariga muvofiq qo'llanilishini, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish tamoyillari hamda qoidalariga, shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanishiga rioya qilinishini, shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berilishida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi me'yorlariga muvofiq xavfsizligi ta'minlanishini kafolatlaydi.

4. MUKOFOT

4. 1. Mazkur Shartnoma doirasida Foydalanuvchiga ko'rsatilgan xizmat uchun Jamiyat uchun mukofot Shartnoma ilovasiga muvofiq belgilanadi.
4. 2. Xizmat xizmatlaridan foydalanganlik uchun to'lov miqdori O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi hisoblangan «so'm» da belgilanadi. Xizmat Operatori mukofot miqdorini bir tomonlama to'liq yoki qisman o'zgartirishga (ko'paytirish, kamaytirish), yangi mukofotni belgilash yoki Shartnomada belgilangan mukofotni bekor qilish huquqiga ega. Bunda ko'rsatilgan o'zgarishlar www.a-pay.uz saytida «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish bo'yicha ofertaga ilovaning yangilangan versiyasi e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.
4. 3. «A-Pay» To'lov xizmatida to'lovlar va hisob-kitoblarni amalga oshirish Foydalanuvchi tomonidan qoplanadi.

5. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

5.1. Foydalanuvchining huquqi:

5. 1. 1. To'lov xizmati belgilangan ketma-ketlikda tegishli amaliyotlarni bajarish orqali harakatlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatuvchi «A-Pay» To'lov xizmati xizmatlaridan foydalanish. Foydalanuvchi ro'yxatdan o'tganidan so'ng, «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish huquqi istisnoli va o'tkazib bo'lmaydigan hisoblanadi.
5. 1. 2. O'z xohishiga ko'ra, «A-Pay» To'lov xizmatidan identifikatsiya ma'lumotlarini kiritish orqali foydalanish. «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish Foydalanuvchini «A-Pay» To'lov xizmati elementlarini ko'paytirmaslik, takrorlamaslik, sotmaslik va bermaslik, tijorat maqsadlarida foydalansmaslik kabi majburiyatlar bilan cheklaydi, shuningdek, uchinchi shaxslarga «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish yoki unga kirish huquqini bermaslik shular jumlasidan. Foydalanuvchi «A-Pay» To'lov xizmatiga kirish amalga oshirilgan qurilmaning axborot xavfsizligini mustaqil tarzda ta'minlash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.
5. 1. 3. Istalgan vaqtida «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanishni bekor qilish.
5. 1. 4. Mazkur Ofertaning 12-bobida ko'rsatilgan rekvizitlarga tegishli yozma xabar yuborib, axborot xizmatini qabul qilishdan bosh tortish.
5. 1. 5. Arizalar, shikoyatlar va boshqa murojaatlarni mazkur Ofertaning 12-bobida ko'rsatilgan tafsilotlardan foydalangan holda yuborish.

5. 2. Foydalanuvchining majburiyatlari:

- 5.2.1. Foydalanuvchi mazkur Oferta shartlariga rozilik bildirib, mazkur Ofertaning talablarini bajarishga majbur bo'ladi.
- 5.2.2. Mazkur Ofertada nazarda tutilgan hollarda, ishonchli va dolzarb bo'lgan ma'lumotlarni, shu jumladan identifikatsiyalash tartib-qoidalarini bajarishda ham taqdim etish. Foydalanuvchi taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqiyligi uchun javobgarlikni o'z bo'yniga oladi.
- 5.2.3. Idenifikasiya va xabarnomalarni yuborish uchun taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlardagi, rekvizitlar va hujjatlardagi ma'lumotlarga kiritilgan o'zgarishlar to'g'risida Jamiatni o'z vaqtida xabardor qilish.
- 5.2.4. «A-Pay» To'lov xizmati xizmatlari uchun Shartnoma va Shartnoma llovasi tomonidan o'rnatilgan miqdorda va tartibda to'lovlarni amalga oshirish.
- 5.2.5. Mazkur Ofertani amalga oshirish uchun Foydalanuvchi ushbu Ofertaning amal qilish muddati davomida yoki Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilik beradi. Ushbu rozilik mazkur Ofertaning amal qilish muddati davomida amal qiladi va bir tomonlama rad etish bilan Foydalanuvchi tomonidan bekor qilinishi mumkin. Agar mazkur Ofertani amalga oshirish jarayonida Foydalanuvchi uchinchi shaxslarning ma'lumotlarini taqdim etsa, Foydalanuvchi ushbu ma'lumotlarni qabul qilishning qonuniyligini va ularni taqdim etishga ushbu shaxsiy ma'lumotlar subyektlarining roziligidini kafolatlaydi.
- 5.2.6. Foydalanuvchi Jamiatdan harakatlanuvchi radiotelefon aloqasi bo'yicha qisqa matnli xabarlarni jo'natish, elektron pochta bo'yicha messenjerlarda xabarlarni yoki kommunikatsiyaning boshqa vositalaridan foydalangan holda axborot xizmatini olishga o'zining roziligidini bildiradi.
- 5.2.7. Foydalanuvchi Jamiatning oldindan yozma roziligesiz Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga taqdim etishga haqli emas.
- 5.2.8. Foydalanuvchi «A-Pay» To'lov xizmatidan firibgarlik yoki boshqa qonunga zid bo'lgan maqsadlarda foydalanishga haqli emas.
- 5.2.9. Foydalanuvchi tovarlar/ishlar/xizmatlar uchun to'lovlar, pul o'tkazmalarini amalga oshirish va/ yoki pul mablag'larini to'lashning har biri Foydalanuvchining ixtiyoriy irodasi ekanligini, bu uchun u O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq shaxsan javobgarlikni o'z bo'yniga oladi.
- 5.2.10. Foydalanuvchi xavfsizligi buzilganligi va uchinchi shaxslar Foydalanuvchining profili va/yoki shaxsiy kabinetiga ruxsatsiz kirganliklari to'g'risidagi barcha holatlar bo'yicha Jamiatni zudlik bilan xabardor qilishi kerak bo'ladi. O'z vaqtida xabar berilmagan taqdirda, Foydalanuvchi o'z profili yoki shaxsiy kabineti orqali amalga oshirilgan harakatlar va/yoki oqibatlar uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

5. 3. Jamiatning huquqlari:

- 5.3.1. Agar Foydalanuvchi mazkur Ofertada ko'rsatilgan tartibda autentifikasiya qilinmagan bo'lsa, amaliyotni o'tkazishni bekor qilish.
- 5.3.2. Ushbu to'lov mazkur Oferta shartlariga va «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in quollarining tarqalishini moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga zid emasligi aniq bo'lmaguncha, shubhali bo'lgan to'lovlarni amalga oshirishni to'xtatish turish. Tomonlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bunday to'xtatish mazkur Ofertaning buzilishi hisoblanmaydi va mulkiy sanktsiyalar va boshqa salbiy oqibatlarning qo'llanilishiga sabab bo'la olmaydi. Shubhali to'lov to'xtatilganligi sababli Foydalanuvchida yuzaga kelgan zarar kompensatsiya qilinmaydi.

5. 3. 3. Foydalanuvchi tomonidan to'lov rekvizitlarini ko'rsatishda xatoga yo'l qo'yilganda, amaliyotlarni o'tkazishda zarur bo'lgan hujjatlar (rekvizitlar) ni taqdim etmaganda yoki to'liqligicha taqdim etmaganida, shuningdek, amaliyot O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va mazkur Oferta shartlariga zid bo'lgan taqdirda amaliyotni o'ztkazishni rad etishi mumkin.
5. 3. 4. Jinoiy yo'l bilan qo'lga kiritilgan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalalashtirish va ommaviy qirg'in quollarini tarqatishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan axborotni qayd etishda zarur bo'lgan, ma'lumotlar, hujjatlarni taqdim etmagan taqdirda Foydalanuvchining ko'rsatmalarini bajarmaslik.
5. 3. 5. Foydalanuvchi tomonidan Oferta shartlari buzilgan holatlarda yoki O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan asoslarda Ofertani bekor qilish.
5. 3. 6. Mazkur Oferta doirasida Tomonlarning o'zaro aloqasida ishlatiladigan interfeys va dasturiy ta'minotni ishlab chiqarish.
5. 3. 7. Mavjud nosozliklar, xato va muvaffaqiyatsizliklar aniqlanganda, shuningdek, profilaktika choralarini o'tkazish maqsadida, ushbu Oferta doirasida Tomonlarning texnik o'zaro ta'sirini ta'minlaydigan dasturiy ta'minot va/yoki moslamalarni ishlashini to'xtatib turish.
5. 3. 8. Har qanday usulda yig'ish, saqlash, qayta ishslash, shuningdek, kerak bo'lsa, har qanday statistik yoki texnik ma'lumotlarni o'z xohishiga ko'ra uchinchi shaxslarga berish.
5. 3. 9. Foydalanuvchi tomonidan shaxsan yoki uchinchi shaxslar tomonidan Ofertani tuzishda yoki amal qilish muddati davomida taqdim etilgan Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlarini Ofertani amalga oshirish maqsadida har qanday usulda qayta ishslash.
5. 3. 10. O'zgarishlarni www.a-pay.uz. saytida e'lon qilish orqali amaldagi Oferta va Tariflarga bir tomonlama tartibda o'zgartirish kiritish. Agar o'zgartirishlar kuchga kiradigan boshqa sana, ular e'lon qilinganida qo'shimcha ravishda belgilanmagan bo'lsa, o'zgartirishlar e'lon qilingan vaqtidan boshlab kuchga kiradi.
5. 3. 11. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiliga muvofiq o'z faoliyatini amalga oshirish maqsadida uchinchi shaxslarni jalb qilish.

5. 4. Jamiyatning majburiyatları:

5. 4. 1. «A-Pay» To'lov xizmatining ishlashini ta'minovchi ko'chirish moslamalari, mobil ilovalari, veb-sayt va/yoki boshqa dasturiy mahsulotlarning ishlashida Jamiyatga bog'liq bo'limgan sabablar tufayli xato va/yoki nosozlik; Foydalanuvchida «A-Pay» To'lov xizmatining ishlashini ta'minovchi dasturiy ta'minotga vaqtinchalik kirish imkonи bo'limgan; uchinchi shaxslarning qonunga zid harakatlari, Foydalanuvchining aybi bilan sodir bo'lgan nosozliklardan tashqari boshqa texnik imkoniyatlar mavjudligida «A-Pay» To'lov xizmatining uzlusiz ishlashini ta'minlash.
5. 4. 2. Foydalanuvchining to'lov, pul o'tkazish bo'yicha buyurmatlarini bajarish. Foydalanuvchining mablag'lari hisobidan olingan vaqtidan boshlab Jamiyatning majburiyati to'liq tarzda bajarilgan hisoblanadi. Foydalanuvchining xatosi bilan, noto'g'ri qabul qiluvchilarga mablag' o'tkazib yuborganligi uchun Jamiyat javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.
5. 4. 3. www.a-pay.uz saytida bunday bildirishnomalar joylashtirish orqali Foydalanuvchini ushbu Ofertaga kiritilgan o'zgartirishlar haqida xabardor qilish (Tariflar va/yoki qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish shartlari shular jumlasidan).
5. 4. 4. Shaxsiy kabinetda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga boshqa shaxslarning ruxsatsiz kirishlarini oldini olish uchun chora ko'rish.

5. 4. 5. Foydalanuvchi haqidagi amaliyotlar va ma'lumotlarni sir saqlash. Foydalanuvchi to'g'risidagi operatsiyalar va ma'lumotlar bo'yicha so'rovlari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hollarda, Foydalanuvchining rozilisiz boshqa shaxslarga taqdim etilishi mumkin.
5. 4. 6. Mazkur Oferta ko'zda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

6. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

- 6.1. Sharhnomalar bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan va/yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Tomonlar ushbu Oferta shartlariga va O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.
- 6.2. Jamiat Sharhnomalar bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun agar bunday bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaslik Foydalanuvchi va/yoki boshqa hisob-kitob Ishtirokchilarining aybi bilan sodir bo'lgan bo'lsa javobgar hisoblanmaydi.
- 6.3. Jamiat «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalangan holda Xaridor tomonidan sotib olingan Tovarning sifati, to'liqligi, shuningdek, boshqa iste'mol xususiyatlari, ko'rsatilgan xizmat/ish sifatiga javobgar emas.
- 6.4. Jamiat Foydalanuvchining ushbu Ofertani shartlari bilan tanishmaganligi va/yoki o'z vaqtida tanishib chiqmaganligi va/yoki Sharhnomalar va uning llovasiga mazkur Ofertaning 5. 3. 10., 11.1. bandlarida nazarda tutilgan tartibda kiritilgan o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan tanishmaganligi va/yoki o'z vaqtida tanishib chiqmaganligi oqibatida yuzaga keladigan har qanday zararlar uchun javobgar hisoblanmaydi.
- 6.5. Jamiat Bank kartalari yo'qolgan/o'g'irlangan yoki Bank kartalari rekvizitlari va PIN-kodni fosh qilish holatlarida Jamiat tomonidan bunday ma'lumotni oshkor qilishining isbotlanmagan faktlari bo'lmagan taqdirda javobgarlikni olmaydi. Bank kartasining, bank rekvizitlarning va PIN-kodning yo'qolishi/o'g'irlanishi to'g'risida tegishli yozma xabarni olmaguncha, Jamiat bank kartasi, bank kartasi rekvizitlari va PIN-koddan ruxsatsiz foydalanish natijasida Foydalanuvchiga yetkazilgan zarar uchun javobgarlikni o'z bo'yniga olmaydi (bank kartasidagi mablag' hisobidan to'lovlar amalga oshirish shular jumlasidan). Xabar tegishli tarzda pochta orqali yoki shaxsan yetkazilgan taqdirda, u Jamiat tomonidan qabul qilingan hisoblanadi.

7. MAXFIYLIK

- 7.1. Foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari «Shaxsiy ma'lumotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va mazkur Sharhnomalar qoidalariga muvofiq qayta ishlanadi.
- 7.2. Foydalanuvchi Jamiatga uning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash, yig'ish, tizimlash, to'plash, saqlash, aniqlashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash maqsadida ma'lumotlardan foydalanish, marketing statistik tadqiqotlarini o'tkazish, ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni tarqatishga to'g'ridan-to'g'ri rozilik beradi. Shu bilan birga, Foydalanuvchining xohish-irodasini erkin ifoda etishini qo'shimcha tasdiqlash uchun yozma shakldagi yoki boshqa dalillar talab qilinmaydi. Foydalanuvchi uning roziligi aniq, ma'lumotli va vijdonan ekanligini tasdiqlaydi.
- 7.3. Foydalanuvchining taqdim etilgan ma'lumotlari quyidagi maqsadlarda foydalilanadi: mazkur Sharhnomalar yoki boshqa sharhnomalarni bajarish va amalga oshirish, Buyurtmachiga Saytda taqdim etiladigan xizmatlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etish, shuningdek, yuqorida ta'kidlangan Sharhnomaga ko'ra, tijorat ma'lumotlarini, shu jumladan, elektron pochta orqali, sms-xabarlar,



messenjerlardagi yoki shunga o'xshash boshqa aloqa vositalari, telefon qo'ng'iroqlari orqali yuborish.

- 7.4. Foydalanuvchi, agar mazkur ofertada ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lsa, uning shaxsiy ma'lumotlari 3-shaxslarga berilishi mumkinligiga rozilik beradi. Foydalanuvchi ijrochi va uning kontragentlariga o'zining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga ruxsat beradi.
- 7.5. Agar Foydalanuvchi uchinchi shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etsa, bunday hollarda, u uchinchi tomonni bunday ma'lumotlardan foydalanilayotgani to'g'risida xabardor qilish va tegishli rozilikni olish uchun javobgardir.
- 7.6. Foydalanuvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda ham, bunday vositalardan foydalanmagan holda ham qayta ishlash mumkin.
- 7.7. Jamiyat axborot tarqalishining oldini olish va bunday xavflarni minimallashtirish uchun axborot xavfsizligi bo'yicha barcha texnik va tashkiliy choralarini ko'radi.
- 7.8. Ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligi talablariga muvofiq oshkor etish majburiyatlarning buzilishi deb hisoblanmaydi. Foydalanuvchi oldidagi majburiyatlarni amalga oshirish maqsadida, Jamiyat bilan shartnoma asosida ish olib borayotgan uchinchi shaxslarga Jamiyat tomonidan ma'lumot berish buzilish hisoblanmaydi.

8. FORS-MAJOR

- 8.1. Agar mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni tomonlar yong'in, suv toshqini, zilzila, harbiy harakatlar, davlat idoralarining qarorlari, qonunchilikdagi o'zgarishlar, mazkur Shartnomaning akseptidan keyin yuzaga kelganda, va mazkur vaziyatlar Tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishlarisha bevosita ta'sir qilgan taqdirda tomonlar o'z majburiyatlarini qisman yoki to'liq bajarmaslik javobgarligidan ozod etiladi.
- 8.2. O'z majburiyatlarini bajara olmaydigan Tomon, ko'rsatilgan holatlarning boshlanishi va tugashi to'g'risida boshqa Tomonni xabardor qiladi, lekin har qanday holatda ham, ularning amal qilish muddati boshlangandan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay, fors-major holatini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilishi kerak bo'ladi. Fors-major holati to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilmaslik tegishli Tomonni ushbu holatlar tufayli o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilish huquqidan mahrum qiladi.

9. NIZOLARNI HAL QILISH

- 9.1. Tomonlar mazkur Shartnoma doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan baxsli nizolarni muzokaralar orqali da'vo tartibida hal qilish uchun barcha zarur choralarni ko'radi. Da'voga javob berish muddati - 10 (o'n) ish kuni. Shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatish ular to'liq hal bo'lgunga qadar to'xtatiladi.
- 9.2. Agar Tomonlar baxsli masalalarni muzokaralar orqali hal qila olmasa, u holda kelishmovchiliklar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.



10. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR QILISH TARTIBI

- 10.1. Mazkur Ofertaning 3-bobida nazarda tutilgan harakatlar Foydalanuvchi tomonidan amalga oshirilgan taqdirda, Foydalanuvchi tomonidan mazkur Ofertaning barcha shartlariga hech qanday istisnosiz qabul qilinishi va Foydalanuvchi va Jamiyat o'rtaida ushbu Oferta shartlariga ko'ra Shartnomaning tuzilishi hisoblanadi. Shartnoma noma'lum muddatga yoki uning amal qilish muddati tugagunga qadar amal qiladi.
- 10.2. Agar Shartnomaning bir yoki bir necha qoidalari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga o'zgartirish kiritilishi munosabati bilan haqiqiy emas deb hisoblansa yoki shunga aylansa, u holda Shartnomaning boshqa qoidalarining amal qilinishini to'xtatish uchun asos bo'lib hisoblanmaydi. Yaroqsiz qoidalar qonuniy ravishda ma'qullanadigan, ma'nolari o'zgartirilganlarga yaqin bo'lgan qoidalarga yaqin bo'lishi lozim.
- 10.3. Foydalanuvchi istalgan vaqtida «A-Pay» To'lov xizmatidagi akkauntini o'chirib Shartnomani rad etishga haqli. Akkaunt o'chirilgandan vaqtidan boshlab Shartnoma darhol bekor qilingan hisoblanadi.
- 10.4. Jamiyat foydalanuvchi tomonidan Shartnoma majburiyatları, maxfiyligi, «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish to'g'risidagi talablarni buzgan taqdirda, ushbu Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

11. BOSHQA SHARTLAR

- 11.1. O'zgarishlar, xizmatlar ko'rsatish tarkibi va shartlarining kengayishi, Jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan yangi xizmatlarning paydo bo'lishi, Oferta Shartnomasining o'zgarishi, xizmatlar narxining o'zgarishi Jamiyat tomonidan bir tomonlama amalga oshiriladi va tegishli o'zgarishlar www.a-pay.uz rasmiy saytida e'lon qilingan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.
- 11.2. Ushbu Shartnoma shartlari Aksepti Foydalanuvchi tomonidan mazkur Shartnomaning barcha shartlarini hech qanday istisnosiz va/yoki cheklavlarsiz to'liq va so'zsiz qabul qilishni anglatadi va «A-Pay» To'lov xizmatidan foydalanish to'g'risida ikki tomonlama yozma shartnoma tuzishga tengdir.
- 11.3. Mazkur Shartnomada tartibga solinmagan barcha masalalarda, Jamiyat va Foydalanuvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi belgilangan tartibda amal qiladi.

TO'LOV TASHKILOTI «CENTER FOR DIGITAL TECHNOLOGY AND INNOVATION» MCHJ. «A-PAY» ELEKTRON PULLAR TIZIMI OPERATORI

100090, O'zbekiston Respublikasi,
Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani,
A. Qahhor ko'chasi, 9-tor ko'cha, 1a-uy
STIR: 306 344 019
h/r: 2020 8000 4050 6594 4001
«Trastbank» XAB OPERBga
Bank kodi: 00491,
Bank STIRi: 201 055 090
OKED: 58290
Tel: (+99855) 500 1110

